

MUHAMMAD ALIXON.

Namangan davlat universiteti.

Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix

yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Muhammadiyev Bilol Ismoil o`g`li.

E-mail:bilolmuhammadiyev5@gmail.com

Tel: +998957707796

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo`qon xoni Muhammad Alixoni dunyoga kelishi, yoshlik yillari, taxtga chiqish davridagi siyosiy holat, Qoqon xonligi hududni kengaytirishi, Qoshg`ardagi kurashlar, Xitoy bilan aliqualari, qilgan nomaqbul ishlari, Buxoro amriliги hujumiga uchrashi va o`limi yoritiladi.

Kalit so`zlar: Ming urug`i, Umarxon, Qoshg`ar, Johongirxo`ja, Amir Nasurullohxon, Muhammad Amin, Maxmud Sulton, Nodirabegim, Ibrohim dodxoh.

Muhammad Alixon Qo`qon xonligida hukumronlik qilgan davrini ham ijobiy ham salbiy voqialar bilan eslaymiz. Chunki u xonlik taxtida o`tirgan maxalda Qo`qon xonligi eng katta hududlarga ega bo`lib oldi. Xonlik iqtisodiyoti ham ancha rivoj topti. Xazinaga tushadigan daromadlar ko`paydi. Lekin yosh xon ichikilika berilgan, bundan tashqari shariat qoidalariga to`g`ri kelmaydigan ishlarni ham alga oshirdi. Buning natijasda Buxoro amriliги hujumiga uchradi va Amir Nasurullohxon tomonidan qatl etildi.

Muhammad Alixon 1810-yilda tug`ulgan. Otasi Umarxon ibn Norbo`tabiy. Onasi Nodirabegim Rahmonqulbiyning qizi. Umarxon va Nodirabegim 1807-yilda turmush qurbanlar. Muhammad Alixon tug`ulgan payt Umarxon taxtga chiqan edi. Muhammad Alixon yoshligidan injiq, erka, badjahil bo`lib o`sgran.

1822-yil kuzida Umrxon kasal bo`lib qoldi va 17 kundan keyin ertalab vafot etdi. Tush vaqtida esa uning o`g`li Muhammad Ali xon etib ko`tarildi. Bu paya Muhammad Ali 12 yoshda edi. Ertasi Kundan davlat ishlarini boshqarishga kirishdi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Uning hukumronligi davrida Qo`qon hududi kengaytirildi: Janubiy Oloy tog` etagidagi tojiklar bo`ysintirildi. Qorategi butunlay, Darvoz, Shug`no, Roshan, Voxan faqat nomigagina zabt etildi.[5. - B28]

Muhammad Alixon xonlikni sharq tomonga ham kengaytirish siyosatini yuritdi. Madalixonning eng yirik harbiy harakati Qoshg`arga amalga oshirilgan. Madalixonning Qoshg`arga yurishining asl sababi otasi davridan beri Qo`qonda asirlikda saqlanayotgan Jahongirxo`janing takror Qoshg`arga qochishi edi. Qo`qon xonlari Jahongirxo`jani Qo`qonda saqlab turganliklari uchun Xitoydan ming yombi (boshqa manbalarga ko`ra 200 yombi) kumush olib turganlar. Umarxon davrida Jahongirxo`ja Qo`qonda O`rdada qamog`ida saqlangan va unga yaxshi muomalada bo`lingan. Muhammad Alixon davrida esa aksincha bo`lganidan, Johongirxo`ja Qoshg`arga qochishga urundi, lekin Andijonda qo`lga tushib yana Qo`qonga qaytarldi. 1824-yilda Farg`onada qattiq zilzila bo`ldi. Zilziladagi tartibsizliklardan foyadalanib yana bir bor qochishga muyassar bo`lgan Johongirxo`ja Balx va Badaxshon tomonlardan itfoq tuzib Qoshg`arga hujum boshlagan. Johongirxo`ja Qoshg`ar va uning atrofidagi hududlarda o`z hukumronligini o`rnatgan bo`lsada, 1829-yilning yozida Xitoy hujimlari natijasida asirga tushdi va Pekinga olib borilib qat etildi. Xitoyliklar bu vaqtida Madalixonga elchi jo`natib, uni xo`jalarni ularga qarshi qurollantirmasligi uchun kelishishga harakat qiladilar. Lekin Madalixon xitoyliklar taklifini rad etib, Qoshg`arga yurish uyushtiradi. Manbalarda bu yurishning sababi sifatida xonlikka qarashli hududlardan soliqni o`z vaqtida yig`ilmayotganligi, navbatdagi yurish uchun xazinani to`ldirish sifatida ko`rsatiladi. Shu yili Qo`qonga Xitoy elchisi keladi. Qo`qonda Xitoy elchisi taklifi muhokama qilinib, Pekinga A`lam pochcha boshchiligidagi elchilar jo`natiladi. Elchi Pekinda katta dabdabalar bilan qabul qilinadi. Madalixon Xitoy imperatoriga quyidagi talablarni jo`natgan edi: 1) Pekinda asirlikda tutilayotgan sayyid (xo`ja)larni ozod qilish (chunki ular Payg`ambar avlodidan); 2) Yetti shahar Qoshg`ardagi musulmonlarni shariat asosida boshqarish uchun topshirish; 3) Har yili Xitoydan 10 ming yombi miqdorida kumushni bojxona solig`i sifatida to`lash.

Madalixon Qoshg`arga ikkinchi bor hujumi, 1830-yilda sodir bo`ldi. Bu

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yurushlarda Qo`qon xonligidan 40 ming atrofida qo`shin bo`lgan. Qo`qonliklar bir-nechta g`alabalarga ershganlar. Gulbog` qal`asini qamal qilinishi 4 oygacha cho`zilgan. Natijada Madalixon Pekinga yana elchi yubordi.[1.-B 31].

Elchilar muzokarasidan keyin 70 ming uyg`ur musulmonlarini Andijon viloyatiga ko`chirib keltirdi. Natijada din peshvolari Muhammad Alixonga “G`oziy” (“din homiysi” “din yo`lida kurashuvchi”) unvonini berdilar.

Shu yilari yani 1829-1830-yillarda Muhammad Alixon o`z ukasidan hadiksiray boshladi. Chunki u taxtga dovo qilgivchilardan edi. Muhammad Alixon undan qutilish maqsadida, til biriktirib onasini oldidan chaqirib oldi va Shaxrisabiz tomonga surgun qilib yubordi.

Muhammad Alixon ko`plab buzuq ishlarni amalgalashdi. Jumladan Olimxon amakisi Maxmudxon o`limidan so`ng uning ayolaridan biriga Umarxon uylangan edi. Muhammad Alixon otasini o`limidan keyin, u xotindi o`z xaramiga olib qolgan edi.[4.-B 630]

Muhammad Alixon 1831- yilda O`ratepaga sair qilib yurgan mahalda, otasini xotinlaridan biri Xonposhsho oyimni ko`rib uni yoqtirib qoladi. Xonposhsha ham hech ikkilanmay u bilan pinhona aloqa qilib yurgan.[2.-B 42]

Bir kuni tepada nomi tilga olingan ikki ayol tortishib qoladi. Muhammad alixon Xonposhshoni tarafini olib u ayolni o`ldiradi. Bundan tashqari ikki kishi biri Xushxol dodxoh, ikkinchisi Oshula laqabli Bibinor nomli kishlar butun Farg`ona bo`ylab, ko`ziga yoqan qiz va ayolarni Muhammad Alixon saroyiga yuborar edi. Qiz va ayolini olib qolish uchun odamlar bor yog`ini berar edi. Muhammad Alixon shariat qoidalariga zid ishlarni, o`zicha buzub yolg`on fatvolar bilan ish ko`rardi. Bundan tashqari qimor o`yiniga ham qiziqib, qaysi viloyatda mashhur qimorboz bo`lsa toptirib kelib tuni bo`yi qimor o`ynr edi. Bu buzuqchiliklari uzoqa bormadi uning qilib yurgan ishlari Qoqon xonligi taqdiri uchun juda ayanchli hodisalarga olib keldi.[4.-B 632].

Buxoro amirlari o`zlarini mintaqada amir al -mo`minin hisoblar edi. Qo`qon xonligidagi bu kabi ishalar Buxoro amiri Amir Nasurullohxon befarq qoldirmadi. Amir Nasurullohxon Buxoro atrofidagi hududlarini birlashtirish yo`lida kurashlar olib bordi. Jumladan 1840-1842-yilar oralig`ida, Qo`qon xonligi Buxorodan tortib olgan va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o`rtadagi tortishuvli hududlar, Bashog`ir, Xojand, O`ratepa, Jizzax, Toshkent va Zominni qayta buxoroga bo`ysuntirdi.[3.-B 20].

Nasurullohxon farmoni bilan 1842-yil 2-aprelda 18 ming piyoda askar va 7 ta to`p bilan Qo`qonga yurish boshladi. Amirni Qo`qonga nisbatan kam kuch bilan yurishiga sabab, xivaliklar Qo`qoni tarafini olib, Buxoroga xaf solib turgani uchun yarim qo`shinini Buxoroga qoldirishga majbur bo`lgan edi. 17-aprelga kelib Amir qo`shinlari Qo`qondan 15-16 chaqirim nariga kelib to`xtadi. Buxorolilarni Qo`qon ostonsida paydo bo`lganini eshitgan Madalixon sarosimaga tushdi. Madalixon Amir bilan diplomatic muzokaralar oliborish uchun katta o`g`li Muhammad Amin va Qozi kalon boshchiligidagi o`z vakilarini yubordi. Bundan oldiroq esa xon saroyini ayonlari Nasurullohxonga maktub yo`lab, Madalixoni Qo`qonda hech kim qo`lamasligini bildirgan edilar. Nasurullohxon xon elchilarini qabul qilib, ular oldiga og`ir shartlar qo`ydi. Chunonchi: Qo`qondagi msjatlarda uning nomiga xutba o`qitirish, Qo`qonda zarb qilinadigan oltin va kumush tangalarni amir nomidan chiqarish va shunga o`xhash shartlar bilan elchilani Qo`qonga qaytarib yubordi. Va takidladiki Muhammad Alixondi o`zi amir oldiga kelib muzokara qilishini.

Muhammad Alixon amir huzuriga borishdan qo`rqdi. Chunki saroyda unga nisbatan munosabatlar o`zgargan, xalq orasida esa norozilik kuchayib ketgan edi. Vaziyatdan qo`rqaq Muhammad Alixon Qo`qoni tark etib 1000 ta sarbozini olib, mol-mulkini 100 ta aravaga yuklab Namanganga qarab qochdi. Ammo uning sarbozlari sodiq emas edi. Sarbozlardan faqat 3 tasi unga sodiq qoldi, qolgani aravadagi boyliklarni talab Qo`qonga qayti. Shundan keyin Qo`shbegi va Qozi kalon Amir Nasurullohxoni Qo`qonga tklif etdilar. Amir Nasurullohxoni 18 minglik qo`shini 4 soat davomida Qo`qoni oddiy axoli, ulomolar, ayonlar va boshqalarni mol-mulkini taladi. Bu paytda qo`qonda 60 ming axoli yashar edi.

Amir Nasurullohxon Qo`qon xonligidagi saroy amaldorlari va yuqori tabaqa vakilari, o`zi bilan keltirgan amaldorlar bilan favqulota kengash o`tkazib, unda Qo`qon xonligi taqdiri uchun amir farmoni o`qib eshitirdi.

1.Qo`qon xonligi butunlay Buxoroga tobe deb elon qilinishi.

2.Xonlikni davo qiluvchi barcha xon vlodlarini majlis paytida qatil etishga

farmoni oliv berilsin.

3. Amir uchun xavfli bo`lgan amaldorlar va yuqori tabaqa vakilari, agar qarshilik qilsalar Buxoroga olibketilishi e`lon qilindi.

Amirni farmoniga asosan asir tushgan Muhammad Alixon uning ukasi, Maxmud Sulton, Muhammad Alixoni ikki o`g`li Muhammad Amin va Muzaffar, xonning onasi Nodirabegim va xonning ikkita katta xotini qatil etildi.

Amir Nasurullohxon Qo`qonga Samarqand hokimi bo`lgan Ibrohim dodxohni noib va unga 6 ming qo`shini hamroh qilib, o`zi o`ljalarni 40 ta aravaga yuklab buxoroga qaytdi.[2.-B 48-49]

Xulosa qilib aytganda Muhammad Alixoni daxrida Qo`qon xonligi, Buxorodan ham, Xivadan ham katta hududlarni egalladi. Muhammad Alixon Qoshg`aragi musulmonlarga yordam beib, ularni himoya qilgani uchun buyuk unvon “G’oziy” unvoni bilan ataldi. Mamlakatda ko`plab obodonchilik ishlarini amalgalashirdi. Lekin Muhammad Alixoni xatolaridan biri nafsi boshqara olmagani. Shuning natijasida oxir- oqibat ayanchli o`lim topdi. Agarda yomon yo`lga kirmasdan, yaxshi boshqarganda edi, axoli uning qo`lardi va Buxoro amirligi hujumiga uchramasdi ehtimol.

FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR.

1. R.X. Akbarov. Qo`qon xonligi tarixi. Farg`ona 2015.145b
2. Й.Косимов. Кукон хонлиги тарихи очерклари- тошкент – номонгон: 1994.135b
3. К.Ражабов, Насруллохон- Тошкент: Абу Матбуот- консалт, 2011.49b.
4. Муҳаммадхакимхон тўра Мунтахаб ат-таворих- Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. 716-b.
5. X. H. Бобобеков. Кукон тарихи-Тошкент: “фан” 1996, 240 b.